

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2025
FILOLOGIYA

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

N.K.Raximova	
Badiiy matn talqini va badiiy matn tahlilining tarixiy taraqqiyoti	4
M.Sh.Abdurahimova	
Sukut psixofiziologiyasi	12
	TILSHUNOSLIK
M.Y.Mamajonov, D.J.Omoniddinova	
Morfo-pragmatik va pragmasintaktik talqin	15
D.I.Mirzayeva, N.U.Nigmatova	
O'zbek va ingliz tilshunosligida antroponimlarning masalasi	26
N.Abduraxmonova, A.Iskandarova	
Parallel korpusda lingvomadaniy birliklarni lingvistik teglash masalasi	29
Q.Sh.Kakharov	
Nemis va o'zbek oilalaridagi nutqiy etiketning o'ziga xos xususiyatlari	33
Z.B.Alimova	
Navoiyning "Saddi Iskandariy" dostonidagi ayrim otlarda arabiy ko'plikning ifodalanishi	37
D.R.Ismoilova	
The linguopoetics of John Steinbeck's works	42
I.A.Soatov	
"Ta'lim-tarbiya" tushunchasining etimologiyasi va lingvistik ifodasi	46
Д.И.Мирзаева, З.А.Абдуллаева	
Анализ речевой агрессии через дискурсивный, прагматический и корпусный подходы	52
Ш.У.Жалолов	
Лексико-семантические особенности овощных и бахчевых культур.....	56
Q.Sh.Kakharov	
Nemis va o'zbek tillarida nutqiy etiketning lingvopragmatik tahlili	61
U.M.Askarova	
Bosh va ikkinchi darajali bo'laklarning uyushishi (Ozod Sharafiddinov asarlari misolida).....	65
I.Sh.Kurbanova	
Temir yo'l terminologiyasini o'rganish usullari va tadqiqot metodologiyasi.....	70
R.A.Xamrakuova	
Margaret Tetcher va Tereza Mey nutqlarining lingvistik tahlili.....	74
Sh.S.Shadiyeva	
Lingvistik nazariyani til o'qitishga integratsiyalash hamda pedagogik amaliyotga filologik yondashish.....	78
Д.О.Турдалиев	
Праздник Масленицы как отражение язычества и христианских традиций в славянской культуре	84
L.T.Toshxonov	
Inkorning psixologik kategoriya sifatida milliy romanchilik na'munalarida ifodalanishi.....	88
Ш.Н.Г.Мамедова	
Новый стиль изображения в фольклорных произведениях Гашама Исабаили	92
A.M.Temirova	
Abdulla Qahhorning "Muhabbat" qissasida qo'llanilgan oksimoronlarning struktur-semantik tahlili	98
F.H.Jamilli	
The sociolinguistic nature of the representation of female dominance.....	102



UO‘K: 82.09:82-1

BADIIY MATN TALQINI VA BADIIY MATN TAHLILINING TARIXIY TARAQQIYOTI**ИНТЕРПРЕТАЦИЯ ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА И ИСТОРИЧЕСКИЙ ПРОГРЕСС
АНАЛИЗА ХУДОЖЕСТВЕННОГО ТЕКСТА****INTERPRETATION OF A LITERARY TEXT AND THE HISTORICAL PROGRESS OF
LITERARY TEXT ANALYSIS****Raximova Nodira Kamolovna** 

Navoiy davlat universiteti, katta o‘qituvchi

Annotatsiya

Ushbu maqolada badiiy matn va uning boshqa matnlardan ajratib turuvchi o‘ziga xosliklari, badiiy matn tahlilining mohiyati, uning adabiyotshunoslikdagi o‘rni va rivojlanishi, uni alohida ilmiy soha sifatida o‘rganib chiqish zarurati tahlil qilinadi. Muallif tomonidan badiiy matnlarning nazariy va tarixiy yondashuvlari negizida ushbu san‘at turining nazariy asoslari atroflicha muhokama qilinadi. Maqolada badiiy matn tahlilining Sharq va G‘arb madaniyatlaridagi rivojlanishi bilan bog‘liq tarixiy manbalar ko‘rib chiqiladi, shuningdek, badiiy matn tahlilining metodologiyasi haqida fikr yuritiladi.

Аннотация

В данной статье рассматриваются уникальные особенности художественного текста, отличающие его от других типов текстов, сущность анализа художественного текста, его роль и развитие в литературоведении, а также необходимость изучения этого направления как отдельной научной области. Автор всесторонне обсуждает теоретические основы этого вида искусства на основе теоретических и исторических подходов к художественным текстам. В статье также рассматриваются исторические источники, связанные с развитием анализа художественного текста в восточной и западной культурах, и даётся анализ методологии изучения художественного текста.

Abstract

The article examines the unique features of literary text that distinguish it from other types of text, the essence of literary text analysis, its role and development in literary studies, and the necessity of studying it as a separate scientific field. The author thoroughly discusses the theoretical foundations of this art form based on theoretical and historical approaches to literary texts. The article also reviews historical sources related to the development of literary text analysis in Eastern and Western cultures and considers the methodology of literary text analysis.

Kalit so‘zlar: Badiiy matn, badiiy matn tahlili, adabiyotshunoslik, janr, tasviriy ifoda, Sharq va G‘arb adabiyoti.

Ключевые слова: Художественный текст, анализ художественного текста, литературоведение, жанр, образное выражение, восточная и западная литература.

Key words: Literary text, literary text analysis, literary studies, genre, figurative expression, Eastern and Western literature.

KIRISH

Insoniyat yaratilibdiki, uning jamiyatda turli ijtimoiy aloqalarga kirishiga, o‘z fikr, his va tuyg‘ularini so‘z orqali ifodalashiga hamda til yordamida har xil lisoniy hamda muloqot bilan bog‘liq bir qator funksiyalarni bajarishiga to‘g‘ri keladi. Tilning o‘ziga xos turlari, insonlararo murakkab jarayonlardagi funksiyalari va xossalari uning tadqiq qiluvchi ob‘yekt sifatida qiymatini yana-da oshiradi. Har qanday badiiy matnni to‘g‘ri tahlil qilish va talqin eta olish malakasi insonning umummadaniy saviyasi, ma‘naviy-ma‘rifiy kamoloti, dunyoqarashining shakllanish darajasi hamda hissiy-estetik idrokining rivojlanishi uchun muhim ahamiyatga ega ekanligi o‘z-o‘zidan ravshanlashadi va buni isbotlashning ortiqcha zarurati ham yo‘q. Shu sababli ham so‘nggi yillarda badiiy tilning negizi ostida yaratilgan hamda yaratilayotgan badiiy matnlar tilshunos olimlar tomonidan keng qamrovli va chuqur tadqiqot ishlarining diqqat markaziga aylanmoqda. Ayniqsa badiiy matn va uning tahlili bilan bog‘liq ishlarning soni kundan-kunga ko‘payib bormoqda.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Har qanday badiiy matnni tahlilga tortishdan oldin uning boshqa matn turlari, jumladan badiiy asardan o'ziga xos jihatlari bilan farqlanishini inobatga olish zarur. Badiiy matnning o'zigagina munosib bo'lgan xususiyatlar uning tahliliy jarayonlariga katta ta'sir o'tkazadi. Shuningdek, bu kabi tahlillar har qanday kishidan "zargarona nigoh hamda mohir tadqiq"ni [1,62] talab etadi.

Badiiy matn tahlili adabiyotshunoslikning alohida fan sohasi sifatida talqin etiladi. Badiiy asarlarning ichki yaxlitligini tahliliy ko'rib chiqish amaliyoti adabiyot tarixi va nazariyasiga birdek yaqin bo'lgan, biroq ularning hech biriga to'liq mos kelmaydigan ilmiy bilish sohasi hisoblanadi.

Badiiy tahlil - badiiy asarlarni ilmiy va chuqur tahlil qilish jarayoni bo'lib, adabiyotshunoslikda o'ziga xos metodologik yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu jarayon asar mazmuni, uslubi, tuzilishi va estetik xususiyatlarini o'rganishni o'z ichiga oladi. Badiiy tahlil istalgan matnni chuqurroq tushunishga yaqindan yordam beradi va uning estetik hamda ma'naviy-ma'rifiy qirralarini namoyon etadi.

Mazkur maqolada badiiy matn tahlilining tarixiy negizi, adabiyotshunoslikdagi ahamiyati va uning rivojlanish bosqichlari har tomonlama ko'rib chiqiladi. Unda badiiy asarlarni o'rganishda nazariy hamda tarixiy yondashuvlarning zarurati ta'kidlanib, ushbu san'at turining ilmiy asoslari keng qamrovda muhokama etiladi. Muallif tomonidan turli maktab vakillarining ilmiy izlanishlari asos qilib olinib, G'arb va Sharq adabiyotshunosligida shakllangan tahliliy yondashuvlar, xususan, turli ideologik talqinlarning ustunligi, 1960-1970 yillarda kuzatilgan yangilanish jarayonlari, shuningdek, badiiy matn tahlilining metodologik masalalari batafsil tahlil qilinadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Badiiy matn tahlili asrlar davomida sezilarli darajada rivojlanib, uning ildizlari qadimgi adabiy tanqidga borib taqaladi. Uning adabiyotshunoslik va tilshunoslik sohalarida mustahkam o'rnini topish tarixini muhokama qilishdan oldin, badiiy matnning o'zi nima ekanligiga, shu bilan birga uni boshqa matn turlaridan farqlab turuvchi o'ziga xos sifat va belgilari haqida so'z yuritamiz. Badiiy matnning o'ziga xos bo'lgan xususiyatlari tilshunos hamda adabiyotshunos olimlarning qarash va talqinlari asosida komparativ (qiyosiy) tahlil metodi orqali o'rganiladi.

Badiiy matn – bu badiiy asar bo'lib, o'zining estetik va san'atkorlik xususiyatlari bilan ajralib turadi. Uning asosiy maqsadi insonlarda estetik qoniqish hissini paydo qilishdan iborat. Badiiy matn o'zigagina xos kompozitsiya va til uslubiyati orqali insonning his-tuyg'ularini uyg'otishga qodir. M.Yo'ldoshevning ta'rifiga ko'ra, "badiiy matn badiiy asar mazmunini ifodalagan, funksional jihatdan tugallangan, tasvir imkoniyatlari asosida shakllangan, o'zida turli uslub ko'rinishlarini muallif ixtiyoriga ko'ra jamlay oladigan, kishilarga estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan g'oyat murakkab butunlik" [2] sanaladi. R. Sobirovning fikricha, "badiiy matn badiiy tasvir vositalari jihatidan unumdor, ta'sirchanlik bo'yicha eng yuqori planga ko'tariladigan, ohangdor va jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladigan matn turi" [3,508] hisoblanadi. Badiiy matnda til takrorlanmas qiyofa yaratib, fe'l-atvor hamda voqelikka xos manzara kashf etadi, shu bilan birga yuksak darajada obrazlilikni namoyon etadi. Shu sababli ham badiiy matnning uslubi boshqa matn turlariga qaraganda keng imkoniyatlarga ega, "o'ta qamrovdor" [3,508] va tasviriy ifoda vositalariga boy bo'lgan matn turi hisoblanadi. M.Farmonova badiiy matnga quyidagicha ta'rif keltiradi: "Badiiy matn moddiylikdan xoli bo'lgan, inson tafakkur olamida paydo bo'lib o'sha olamda yashaydigan mavhum (idealistik) hodisa, shuningdek to'xtovsiz mutassil harakat qiluvchi cheksiz maydondir." [1,62]

R.Jakobson badiiy matnni kommunikativ faoliyatning o'ziga xos turi deb hisoblab, uni estetik funktsiya bilan bog'laydi. Uning fikriga ko'ra, badiiy matn til va ifoda vositalarining muvozanatli uyg'unligini aks ettiradi va o'quvchiga hissiy ta'sir ko'rsatish uchun mo'ljallangan bo'ladi [4]. M.Baxtin esa badiiy matnni dialogik hodisa deb ataydi. Uning talqiniga asoslanib badiiy matn boshqa matnlar bilan bog'liq ekanligini hamda o'zaro muloqotga kirishishini, shu bilan birga har bir matn o'z davrining madaniy va ijtimoiy kontekstini aks ettirishini [5] ta'kidlash mumkin. R.Barthes esa badiiy matnni "matnlik" nazariyasi orqali ko'rib chiqadi. U badiiy matnni muallifdan ajratilgan, ko'p qatlamli, o'quvchi tomonidan qayta yaratiladigan mazmun sifatida talqin qiladi [6]. Uning fikricha, badiiy matn o'zida bir nechta ramz va ma'nolarni mujassamlashtiradi. O'z navbatida R.Sobirova har qanday badiiy matn o'ziga xos sistema ekanligini va bu sistema bir-birini taqozo qiladigan (tovush (harf)lar – so'zlar, iboralar – gaplar – abzats – bo'lim – qism – boblar) halqalar jamlanmasidan tarkib topganligini alohida ta'kidlab o'tadi [3,508]. Ammo u matndagi so'zlar

orasidagi munosabatdan ko'ra gaplar o'rtasidagi munosabat muhim ekanligiga alohida urg'u beradi. Negaki gaplar orasida ham mazmunan, ham shaklan aloqadorlik rishtalari bo'lmasa, matnning butunligi va yaxlitligi haqida so'z borishi ham mumkin emas. Badiiy matndagi kompozitsion butunlik va uyg'unlik tushunchasi "zamon va makon muvofiqligi, ifoda va qolip uyg'unligi hamda motivatsion yaxlitlik [3,508]" tushunchalari bilan bevosita bog'liq. Badiiy matni lisoniy tahlil qilish jarayonlarida esa bunday uzviylikka ahamiyat berish muhim sanaladi.

Umberto EKO badiiy matni tahlil qilishda o'ziga xos yondashuvlarga ega bo'lgan mashhur Italiyalik adabiyotshunos-tanqidchi va yozuvchi-publitsistdir. Uning fikrlari badiiy asarlarni talqin qilish va tahlil qilish uslublarini boyitgan. U eko matni tahlil qilishda uning talqin qilinish imkoniyatlariga alohida e'tibor beradi. U badiiy matnlarni "ochiq matn" hamda "yopiq matn" sifatida tasniflaydi. Ochiq matnlar uning talqinida o'quvchiga teran fikrlash imkonini beruvchi, aniq javoblardan ko'ra savollarni tug'diruvchi, shu bilan birga turli xil konseptlarni uyg'otuvchi matn turi hisoblanadi [7]. Bu kabi matnlar fikrlarning ochiqiligi, kengligi va turli xilligi bilan boshqa matn turlaridan ajralib turadi. Masalan, badiiy matnlar o'quvchilarning individual tajriba va dunyoqarashlariga qarab turlicha talqin qilinadi. Ochiq matnlar muallifdan emas, balki o'quvchidan faol aqliy ishtirokni talab qiladi, negaki o'quvchi o'z aqliy qobiliyatlari hamda fikrlash doirasining teranligi bilan badiiy matnga ma'no beradi va voqealar ortidagi yashirin ma'nolarni izlashga undaladi. U. Ekoning badiiy matn to'g'risidagi bu tasnifi badiiy asarlarni faqatgina mazmunan emas, balki o'quvchi va matn o'rtasidagi o'zaro ko'rinmas aloqani o'rganishda katta ahamiyatga ega. Adabiyotshunos olimning fikriga ko'ra, yopiq matnlar, aksincha, ma'no jihatidan qat'iy belgilangan hamda muallifning fikrlari bilan chegaralangan bo'ladi. Yopiq matn o'quvchini cheklangan doirada fikrlashga undaydi. Unga ortiqcha mushohada va tafakkur qilish imkoniyatlari berilmaydi. Bu turdagi matnlar didaktik (o'rgatuvchi) yoki ko'rsatma berish xususiyatiga ega bo'ladi.

Fransuz faylasufi, adabiyotshunoslikdagi strukturalizm nazariyasining tarafdori Ts.Tadorov badiiy matn konseptini adabiy muayyan janrlar doirasida yaratiladi deb talqin qiladi va ular bu janrlarning ma'lum bir qoidalariga mos ravishda o'z xususiyatlarini namoyon etadi, shakllanadi va tahlilga tortiladi degan nazariyani ilgari suradi [8,159]. Olimning nazdida, janr faqat shakl emas, balki mazmunning tashuvchisi sifatida namoyon bo'ladi. Har bir janr o'ziga xos qoidalar, mavzu va uslubiyatlarga ega. Badiiy matni batamom tushunish uchun o'quvchi uning qaysi janrga mansub ekanini bilishi muhimdir. Bu orqali matnning g'oyaviy va estetik xususiyatlari yanada aniqroq ochiladi. Ammo bu borada janrlarning o'zgaruvchanligini hamda ularning davr talablariga mos ravishda rivojlanib borishini utunmaslik lozim.

Olimlarning badiiy matn to'g'risidagi talqinlarini yanada soddaroq tushuntirish maqsadida ularni qisqaroq uslubda taqdim etamiz:


1-jadval

No	Adabiyotshunos olimlar	Badiiy matn talqini
1	M.Yo'ldoshev	Estetik zavq berish xususiyatiga ega bo'lgan matn
2	R.Sobirova	Badiiy tasvir vositalar hamda jozibador so'zlar ko'p qo'llaniladigan matn turi
3	M.Farmonova	Badiiy matn inson tafakkurida mutassil harakat qiluvchi cheksiz maydon
4	R.Jakobson	Til va ifoda vositalarining uyg'unligini o'zida mujassam etgan matn turi
5	M.Baxtin	Badiiy matn dialogik xususiyatga ega bo'lib, boshqa matnlar bilan muloqotga kirishuvchi matn turi
6	R.Barthes	Badiiy matn muallifdan ajratilgan, ko'p qatlamli, o'quvchi tomonidan qayta yaratiladigan matn turi
7	U.Eko	Ochiq hamda yopiq turdagi matnlar turkumi
8	Ts.Tadorov	Badiiy matn muayyan janrda yaratiluvchi va bu janrning ma'lum bir qoidalariga mos ravishda o'z xususiyatlarini namoyon etuvchi matn turi

ADABIYOTSHUNOSLIK

Turli davrga mansub adabiyotshunos va tilshunos olimlarning badiiy matn borasidagi qarashlari va talqinlarini tahlil qilar ekanmiz, badiiy matnning yaralishi, uning ifodalanishi hamda ta'sir kuchini quyida berilgan diagramma asosida ko'rishimiz mumkin:

1- diagramma



Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, badiiy matn bu – adabiy va estetik maqsadlarda yaratilgan til birliklarining jamlanmasi bo'lib, har qanday kishiga hissiy va intellektual ta'sir ko'rsatishga qaratilgan matn turidir. U o'ziga xos badiiy tasvir vositalarini qo'llagan holda o'z muallifining g'oyasi va dunyoqarashini aks ettiradi.

Ushbu tadqiqot sifat jihatidan tahliliy va nazariy yo'nalishda amalga oshirildi. Tadqiqot ishining adabiyotlar tahlili qismida badiiy matn va uning boshqa matn turlaridan farqlari, o'ziga xosliklari qiyosiy tahlil metodi orqali o'rganib chiqildi. Tadqiqotning metodologiyaga bag'ishlangan qismida esa badiiy matn tahlilining G'arb va Sharq mamlakatlarida tarixan shakllanish hamda rivojlanish jarayonlari tarixiy metod asosida to'plangan material va manbalar yordamida tadqiq qilinadi.

Badiiy matn tahlilining ildizlari hamda ilk urinishlari qadimiy yunon-rim davriga borib taqaladi. Aristotelning "Poetika"si asarlarni tahlil qilishga bag'ishlangan birinchi nazariy asarlardan biri hisoblanadi. Ushbu asarda yunon faylasufi badiiy asarlarni ma'no va shakl jihatidan tahlil qilgani haqida fikrlar keltiriladi [9]. Aristotelning matnlarning tuzilishini tushunishga oid tizimli yondashuvi badiiy tahlilni ilmiy soha sifatida boshlagan. Rim davrida esa Horatsiy va Tsitseron kabi dunyoga ma'lum va mashhur shaxslar, adabiyotning jamiyatdagi roli va she'riyatning axloqiy-ta'limiy funksiyasini muhokama qilib, badiiy tanqidning rivojiga ulkan hissa qo'shganlar.

O'rta asrda esa badiiy tahlilning diniy jihatlariga ko'proq ahamiyat qaratilgan. Dante Alixyeri va Joffri Choser kabi olimlar matnlarni diniy va allegorik (majoziy-ramziy) nuqtai nazardan tahlil qilishgan. O'sha davrning adabiyotiga xos bo'lgan axloqiy va diniy konseptlarni va ma'lumotlarni o'rganishgan va adabiyot o'quvchilarni xristian doktrinasini bilan yaqindan tanishtirish vositasi sifatida qo'llanilgan.

Renessans davrida qadimiy qadriyatlarni yangidan kashf etishga bo'lgan qiziqishning ortishi natijasida, badiiy matn tahlili yana-da insonparvarlikka va inson tabiatini o'rganishga qaratildi. Masalan, ingliz shoiri va davlat arbobi Filipp Sidney o'zining "Poeziya himoyasi" asarida adabiyotning axloqiy va intellektual rivojlanish vositasi sifatidagi ahamiyatini ta'kidlagan [10]. U o'z

davrining “yengiltabiat she’riyati”ni qoralab, adabiyotning yuksak vazifasi gumanistik mulohazalar bilan to’yingan, axloqiy yetuk shaxsni tarbiyalashga va insonlarning o’z ongli sa’y-harakatlarisiz erishib bo’lmaydigan ma’naviy kamolotga erishishga yordam berishdan iborat ekanligini ta’kidlagan [11].

XIX asrga kelib esa badiiy asarlarning nafaqat semantik hamda morfologik asosiga, balki anchagina murakkab jarayonlarni o’z ichiga oluvchi psixologik va falsafiy tomonlarini tahlil qilinishi an’anaga aylanadi. Bu davrga kelib ijtimoiy va estetik masalalarga bo’lgan e’tibor ancha kuchaydi. Klassik adabiyotshunoslikda asarlarni har tomonlama tahlil qilishga urinishlar ko’plab uchragan, biroq hozirgi ko’rinishda bu jarayonni shakllantirishda formal maktab va strukturalizm asosiy rol o’ynagan.

Formal maktab XX asr boshlarida Rossiyada paydo bo’lgan bo’lib, uning asoschilari orasida Viktor Shklovskiy, Roman Jakobson va Boris Eyxenbaum singari olimlar bor edi. Shuningdek, badiiy matn va uning tahlili bilan bog’liq ilk ma’lumotlarni rus adabiyotshunosi, folklorshunosi hamda etnografi A.P. Skaftimovning asarlarida uchratish mumkin. Ushbu maktab namoyondalarining asosiy e’tibori adabiyotni tadqiq qilishda asarning tuzilishi, uslubi, ritmi kabi shakliiy xususiyatlariga hamda formal elementlariga qaratilgan edi. Bu yondashuv badiiy asarni tahlil qilishda uning mazmunidan ko’ra shakliga ko’proq urg’u berish kerakligini ko’rsatdi. Bu davrning o’ziga xosligi ham uning badiiy matn va asarlarga, ularning ichki tuzilishi hamda tarkibiy komponentlariga alohida e’tibor qaratilganligidadir. Bu davr o’ziga xos qarash va nazariyalarga boy davr hisoblanadi. Jumladan, A.Skaftimov o’z davrida adabiyot tarixini o’rganish jarayonida asarlarni “nazariy jihatdan ko’rib chiqish” zarur degan fikrni ilgari surgan. Rus adabiyotshunosi, faylasufi, Yevropa madaniyati va san’ati nazariyotchisi M.M.Baxtin esa o’rganilayotgan har qanday asarni “estetik tomondan tahlil” [12,21] qilish zarurati haqida yozgan.

Formalizm davridagi badiiy matn tahlili adabiyotshunoslikda yangi nazariy yondashuvning shakllanishiga asoslangan bo’lib, bu uslub XX asrning boshlarida Rossiyada rivojlangan. Formalizm uslubining Y.N.Tinyanov, B.M.Eyxenbaum, B.V.Tomashevskiy, V.M.Jirmunskiy, B.V.Shklovskiy singari bir qator namoyonda vakillari badiiy matnni mustaqil ob’yekt sifatida o’rganishga urg’u berishgan va badiiy matnlarni tahlil qilishning shakllanishiga katta hissa qo’shishgan, shu sababli ular rus adabiyotshunoslik “formal maktabi”ning rasmiy vakillari sanalgan. Formalistlar tomonidan badiiy matnning asosiy vazifasi real hayotni emas, balki san’atni yaratish ekanligi ta’kidlangan. Ular har qanday matnni ijtimoiy, tarixiy yoki biografik kontekstdan tashqarida o’rganishga harakat qildilar va ular uchun matnning o’zigagina xos shakli va uslubi birinchi darajali ahamiyatga ega edi.

Keyinchalik sovet adabiyotining o’ziga xos jihatlarini tahlildan o’tkazish bir muddat e’tiborsiz qoldirilgan yoki aksincha, tahliliy jarayonlardagi ustunlik asosan ideologik talqinlarda va ijtimoiy-tarixiy izohlardagina ko’rilgan. XX asrning 70-yillariga kelib, rus adabiyotshunosligi yana qayta jonlanadi va bu soha qayta rasmiy e’tirof etila boshlanadi. Ushbu davrda yaratilgan tahliliy xarakterga ega maqolalar, monografiya va qo’llanmalar buning yaqqol isbotidir. Ulardan hattoki ta’lim dargoh (universitet)larida filologik hamda akademik fanlarni o’qitish amaliyotida foydalanilgan.

20-asrning oxirida post-strukturizm va dekonstruktsiya strukturizmga tanqidiy javob sifatida paydo bo’lgan badiiy matn tahlilining zamonaviy yo’nalishlaridan sanaladi. Jakk Derida, Mišel Fuko va Yuliya Kristeva singari yangicha yo’nalish tarafdorlari har bir matnning ko’p ma’noli ekanligini, uni hech qachon bir xil tarzda talqin qilishning iloji yo’qligini, matnda mavjud turli darajadagi yashirin ziddiyatlarni ochib berishga, muallifning roli kamayib, o’quvchining matnni talqin qilishdagi o’rni kuchayishini alohida ta’kidlashadi.

Bugungi kunga kelib badiiy matnning zamonaviy tahlil qilish uslublari kundan-kunga yangidan-yangi bosqichlarga ko’tarilmoqda. Bu sohada kulturalizm (matnni ijtimoiy va siyosiy kontekstda ko’rib chiqish), feministik va gender tahlil (badiiy matnlardagi gender rollari va ayollarning tasvirlanish usullarini o’rganish), psixoanalitik tahlil (badiiy matnni inson psixikasining yashirin motivlari bilan bog’lash), ekokritika va ekologik tahlil (matndagi tabiat, atrof-muhit va insonning u bilan munosabati, atrof-muhitning badiiy tasvirlardagi o’rnini o’rganish) singari zamonaviy tendensiyadagi tahlillar badiiy matnni tahlil qilish spektrini yanada kengaytirishga yaqindan yordam bermoqda.

ADABIYOTSHUNOSLIK

Sharq mamlakatlarida badiiy matn tahlilining shakllanishi va rivojlanish tarixi o'ziga xos madaniy, falsafiy, va diniy an'analariga asoslangan bo'lib, bu jarayon turli davrlarda o'zgarish va rivojlanishni boshdan kechirgan. Sharq adabiyoti ko'p asrlar davomida Qur'on, Hadis va diniy tafsir ilmiga asoslangan. Biroq tafsir ilmi faqatgina diniy matnlarni sharhlash bilan cheklanmagan, balki matndagi ma'no va mohiyatni teran ochib berishga xizmat qilgan. X asrdan boshlab Sharqda badiiy matn tahlili klassik poetika tamoyillari bilan boyitilgan. Aruz, qofiya va badiiy tasvir vositalarining o'rganilishi, Alisher Navoiy va boshqa mumtoz shoirlarning asarlarini tahlil qilishning asosiy tamoyillarini belgilab bergan. Forobiy, Ahmad Taroziy, Navoiy, Bobur singari mutafakkirlarning asarlarida esa badiiy tahlilga doir islomiy-turkiy qarashlar aks etgan [13,5]. O'sha davrning qarashlariga ko'ra, san'at inson evristik faoliyatining eng oliy ko'rinishidir. Badiiy adabiyot esa san'atning boshqa turlari orasida alohida mavqega egadir, negaki u inson ma'naviyatini shakllantirishda asosiy o'rin tutadigan vositadir. O'rta asrlarga kelib, matnning estetik, axloqiy va didaktik (tarbiyaviy) jihatlarini tahlilga tortish urfga kirgan. Shu sababli ham bu davrda she'r va she'riyat tahlilida ramziy ma'nolarni ochish hamda adabiy me'yorlarga rioya qilish asosiy vazifa sifatida belgilangan.

XIX-XX asrlarda mustamlakachilik hamda modernizm davrlarining ta'siri ostida ko'pgina Sharq mamlakatlariga G'arbning adabiy nazariyasi kirib keldi. Shu sababli bu davrda milliy qadriyatlarni qayta ko'rib chiqib baholash, milliy va mustaqil adabiy maktablarga asos solishga qiziqish kuchaydi. Jumladan, Jadidchilik harakatlari badiiy matnni o'rganishda o'quvchining dunyoqarashini teranlashtirish hamda milliy ruhiyatni shakllantirishda va singdirishda muhim rol o'ynadi.

Bugungi kunda esa badiiy matn tahlilining zamonaviy yo'nalishlari Sharq mamlakatlarida zamon va global tendensiyalar asosida rivojlanib bormoqda. Ayniqsa, badiiy matnlarni lingvistik, semiotik va intertekstual tahlil qilish metodlari keng qo'llanmoqda.

NATIJA VA MUHOKAMA

Ushbu tadqiqot ishida badiiy matn tushunchasi, uning o'ziga xos sifatlari hamda badiiy matn tahlilining Sharq va G'arb mamlakatlarida shakllanish evolyutsiyasi va rivojlanishi tarixi chuqur tahlilga tortilib quyidagi natijalarga erishildi:

1. Badiiy matn boshqa matn turlaridan o'zining ramziy mazmuni, estetik o'lchovi va axloqiy-didaktik maqsadlari bilan ajralib turishi aniqlandi.

2. Sharq adabiyotida badiiy matn tahlili asosan axloqiy-tarbiyaviy, diniy va allegorik asoslarga qurilgan bo'lsa, G'arb adabiyotida esa struktur shakl va mazmunning uyg'unligi, shuningdek, muallifning individual yondashuvi alohida ahamiyat kasb etadi.

3. Badiiy matn tahlili Sharq va G'arbda turli rivojlanish bosqichlarini, ya'ni Sharqda Qur'on tafsiriga, G'arb mamlakatlarida esa ma'lum bir faylasuf va olimlarning yaratgan asarlariga asoslanganligiga e'tibor qaratildi.

4. O'rta asrlarda ikkala mintaqada diniy jihatlariga asoslangan tahlil tamoyillari rivojlangan bo'lsa, Renessans (uyg'onish) davrida insonparvarlik va individualizm tamoyillari kuchayganligi isbotlandi.

5. G'arbning zamonaviy tendensiyalariga ko'ra, post-strukturalizm va dekonstruktsiya yo'nalishlari badiiy matnning serqirraligini hamda o'quvchi talqiniga ochiq ob'yekt sifatida o'rganishga yo'naltirilganligi, Sharqda esa lingvistik, kulrural (madaniy) tahlil metodlari singari yangi yondashuvlar tadqiqot spektrining kengaytirilgani ochiqlandi.

Olib borilgan tadqiqot jarayonida qo'llangan komparativ (qiyosiy) metodologiya tadqiqot ishining dolzarbligi va ishonchligini ta'minlashga yordam berdi. Xususan, nazariy va tarixiy-qiyosiy yondashuvlarning integratsiyasi tadqiqot mavzusini har tomonlama o'rganishga imkon berdi. Bu yondashuvlar orqali aniqlangan yakuniy natijalar badiiy matn va uning tahlili, tarixiy evolyutsiyasi bilan bog'liq qirralarini qiyosiy metod orqali yig'ilgan ma'lumotlar asosida ochib berdi. Avvallambor, "matn nutqiy jarayon mahsuli ekanligi, tugallangan, yozma shaklda mavjud bo'lganligi, adabiy shakllangan, superfazali butunliklardan tuzilganligi, leksik, grammatik, logik, stilistik aloqalar bilan bog'langanligi, aniq maqsadli va pragmatik qurilmali nutqiy asar" [3] ekanligi aniqlandi. Undan tashqari, tadqiqot ishida badiiy matn tahlilining tarixiy kelib chiqishi qadimgi yunon-rim davrlariga borib taqalishi qayd etildi. Aristotelning "Poetika" asari badiiy matnlarni tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qilgan va o'z davrining olimi sifatida san'atni shakl va mazmun jihatidan tushunish

uchun kerakli ko'rsatmalarni bergan. Rimda esa adabiyotning jamiyatdagi didaktik va ta'limiy ahamiyatiga alohida urg'u berilgan, bu esa o'z navbatida adabiyotshunoslikda tanqidchilikning rivojlanishiga zamin yaratgan. O'rta asrlarda va Renessans davrida badiiy matn tahlili insonparvarlik tamoyillari hamda odamiylik konseptlari bilan uzviy bog'liqligini ko'ramiz.

XX asr boshlarida formalizm va strukturalizm yondashuvlarining paydo bo'lishi badiiy matn tahliliga boshqa spektrdan qarashga undagan. Shu sababli ushbu yondashuvlarda badiiy matnning struktur tuzilishi hamda uslubiga e'tibor berilib, uning mazmunidan ko'ra shakliga urg'u berilgan. Bu kabi qarashlar esa badiiy matn tahlilining ilmiy asoslarini mustahkamlashga xizmat qilgan. Post-strukturalizm va dekonstruktsiya yo'nalishlarida esa har bir matnning ko'p ma'noliligi va uni turli nuqtai nazardan talqin qilishning muhimligi ta'kidlangan. Bu uslub muallif va o'quvchi o'rtasidagi yangi munosabatlarni shakllantirishga yordam bergan.

Sharq kontekstida esa badiiy matn tahlili butunlay boshqa rakursdan namoyon bo'lgan. Turli davrga mansub adiblarning ijodiy durdonalarining madaniy, falsafiy va diniy asoslari belgilab berilgan. Jadidchilik ma'rifiy harakati va Chor Rossiyasi mustamlakachiligining ta'siri ostida yangi adabiy maktablarni shakllantirish maqsadida amalga oshirilgan urinishlar besamar ketmagan.

Bugungi kunda badiiy matnning tahlili zamonaviy yondashuvlari lingvistik, semiotik, psixoanalitik va gender tahlil usullari bilan boyitilgan.

Mazkur tadqiqot ishida tarixiy va zamonaviy tahlil usullarining uzviy bog'liqligi, badiiy matnning o'rganishning nazariy va amaliy ahamiyati chuqur ochib berildi. Bu esa, o'z navbatida, badiiy tahlilni nafaqat adabiyotshunoslik, balki madaniyat va san'atni tushinishda ham asosiy vosita sifatida ko'rsatadi.

XULOSA

Tadqiqot davomida olib borilgan qiyosiy metodologik yondashuv va natijalar asosida quyidagi birlamchi va boyituvchi muhim tahliliy xulosalar shakllantirildi:

1. Turli davr va yondashuv tarafdorlarining bergan ma'lumotlari asosida badiiy matn va badiiy matn tahlili konseptlari haqida birlamchi va bazaviy tushunchalar shakllantirildi.

2. Tadqiqot davomida olingan ma'lumotlar tahlili shuni ko'rsatdiki, badiiy matn muallifning emotsional kechinmalari, his-tuyg'ulari, ularni tasvirlashga yordam beruvchi lisoniy va ifoda vositalari hamda o'quvchiga ta'sir etadigan kuchi o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud. Bu kabi munosabatlar esa taqdidot muammosini yanada chuqurroq va tizimli o'rganishga imkon yaratadi.

3. Tadqiqot natijasida olingan ilmiy xulosalar nafaqat nazariy bilimlarni boyitishga, balki ularni amaliy jihatdan mavzu doirasida ma'lum tavsiyalarni ishlab chiqishga yordam beradi. Bu tavsiyalar adabiyotshunoslik, matn sharhi, badiiy matn tahlili, badiiy tahlil asoslari singari sohalar va fanlar uchun dolzarb bo'lishi mumkin.

4. Tadqiqot doirasida aniqlangan tavsiyalarni inobatga olgan holda badiiy matn tahlili mexanizmlarining yangi va zamonaviy turlarini ishlab chiqish lozim.

Kelgusida ushbu tadqiqot natijalari asosida yangi ilmiy izlanishlar olib borish hamda amaliyotda qo'llash uchun keng imkoniyatlar mavjudligini ta'kidlab o'tish joiz.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, badiiy matn tahlili adabiyotshunos va olimlar jamiyatdagi adabiyotning rolini qanday talqin qilganliklarini va matnlardan ma'no qanday chiqarilganini o'zgartirishga bo'lgan yondashuvlarni aks ettiradi. Aristotelning tragediya haqidagi dastlabki nazariyalaridan post-strukturizmning paydo bo'lguniga va raqamli inqilob davrigacha, badiiy matn tahlili yangi intellektual va madaniy chaqiriqlarga javoban doimiy ravishda rivojlanib kelgan. Kelajakda badiiy tahlil yangi metodologiyalar va nuqtai nazarlarni qo'llash orqali adabiyotning inson tajribasidagi rolini yanada chuqurroq tushinishga yordam beradi degan umiddamiz.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Farmonova M. Badiiy matnning o'ziga xosligi (strukturalistik talqinda). – Scientific progress, Volume 2., Issue 5, 2021. – B. 62. ISSN: 2181-1601
2. Yo'ldoshev M. Cho'lponning badiiy til mahorati. Filol.fan. nomz... dis. avtoref. – Toshkent, 2000
3. Sobirova R. Badiiy matnning matn turlari orasida tutgan o'рни. Международный научный журнал «Новости образования: исследование в XXI веке», 5-son (100), 1-qism, - Moskva, 2022. – B. 508
4. Jakobson, R. (1960). "Closing Statement: Linguistics and Poetics." In *Style in Language*, edited by T. A. Sebeok, 350–377. Cambridge, MA: MIT Press

ADABIYOTSHUNOSLIK

5. Bakhtin, M. M. (1981). *The Dialogic Imagination: Four Essays*. Edited by M. Holquist, translated by C. Emerson and M. Holquist. Austin: University of Texas Press
6. Barthes, R. (1977). "From Work to Text." In *Image-Music-Text*, translated by S. Heath, 155–164. New York: Hill and Wang
7. Eco, U. (1979). *The Role of the Reader: Explorations in the Semiotics of Texts*. Bloomington: Indiana University Press
8. Todorov, T. (1976). *The Origin of Genres*. *New Literary History*, 8(1), 159–170
9. Aristotle. *Poetics*. (1999). Translated by S. H. Butcher, The Internet Classics Archive
10. Sidney, P. (2002). *An apology for poetry* (G. Shepherd, Ed.). Manchester University Press. (Original work published 1595)
11. <https://ru.wikipedia.org/wiki/>
12. Tojiboyev, M., Xo'jamqulov, U., Botirova, Sh. *Adabiy germenevtika va badiiy til poetikasi*. – Toshkent, 2022. – B. 21-25
13. Safarov, F., Xaitov, X., Saidova, G. *Badiiy matn tahlili (o'quv-uslubiy majmua)*. – Buxoro, 2021. – B. 5